

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

“KELISHILGAN”
Oliy va o‘rta maxsus
ta‘lim vazirligi:

_____ 2021 yil
“ ” _____

“TASDIQLAYMAN”

Samarqand davlat universiteti
rektori:
prof. R.I. Xalmuradov



_____ 2021 yil

5A141002 - EKSPERIMENTAL AGROKIMYO

**MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGIGA
KIRISH SINOVLARI UCHUN
MAXSUS FANLARDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Samarqand-2021

Annotatsiya:

Dastur 5A141002–Ekspremental agrokimyo mutaxassisligiga kiruvchilar uchun 514100–Tuproqshunoslik ta’lim yo‘nalishining 2017 yilda tasdiqlangan o‘quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzildi.

TUZUVCHILAR:

Xashimov F.X.	-	SamDU, Agrokimyo va o‘simliklarni himoya qilish kafedrası mudiri, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor
Xayitov M.A.	-	SamDU, Agrokimyo va o‘simliklarni himoya qilish kafedrası dotsenti, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi
Tashkenbayev O.N.	-	SamDU, Agrokimyo va o‘simliklarni himoya qilish kafedrası dotsenti v.b., qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi

Dastur Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi fakultetining 2021 yil 28 iyundagi № 14 sonli kengash yig‘ilishida, Universitet kengashining 2021 yil 30 iyundagi 11-son yig‘ilishida muhokama etilgan va tavsiya etilgan.

KIRISH

O‘simliklar oziqlanishi va o‘g‘it, tuproq bonitirovkasi va xaritalash, umumiy dehqonchilik va o‘simliklikshunoslik, arokimyoviy tajriba usullari fanlarining maqsad, vazifalari va tadqiqot usullari, meliorativ tuproqshunoslik va tuproq muhofazasi, ijtimoiy va tabiiy dunyoviy fanlar bilan uzviy bog‘liqligi, rivojlanish tarixi va unga O‘zbekiston olimlarining qo‘shgan xissalari. Ushbu fanlarning hozirgi zamon dolzarb ilmiy va amaliy muammolari hamda eksperimental agrokimyo mutahassislarni tayyorlashdagi asosiy masalalari.

Ta’lim yo‘nalishi negizidagi mutaxassisliklarning vazifasi – talabalar bilimni qishloq xo‘jaligi yo‘nalishi bo‘yicha iliy tashkilotlar, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish komplekslarini boshqarish; tuproqshunoslik va agrokimyoda ishlab chiqarish jarayonlarini sintez, tahlil qilish va yaxshilash, ekologik toza mahsulot sifatini ta’minlash usullarini qo‘llash, tuproq, o‘simlik va o‘g‘itlarning sifat tahlillarini o‘tkazish, harakatchan fosfor va kaliy miqdori bo‘yicha agrokimyoviy xaritagrammalar tuzish, o‘g‘itlarni qo‘llash texnologiyasi va ishlab chiqaruvchi tashkilotlar, asosiy ekinlarga o‘g‘it qo‘llash tizimi, tuproqshunoslik va agrokimyo sohasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni umum qabul qilingan uslublar bo‘yicha olib borish, olingan natijalarga statistik ishlov berish. Bunda, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bilimlarni oshirish va ko‘nikma hosil qilishdan iboratdir.

514100–Tuproqshunoslik bakalavriat ta’lim yo‘nalishi negizida 5A141002–Ekspremental agrokimyo magistratura magistratura mutaxassisliklariga kiruvchi talabalar uchun ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga asosan 4 ta ixtisoslik: “Tuproq bonitirovkasi va xaritalash”, “Agrokimyoviy tekshirish usullari”, “O‘simliklarni oziqlanishi va o‘g‘itlash”, “Meliorativ tuproqshunoslik va tuproq muhofazasi”, fanlari bo‘yicha test topshiriqlari shakllantirilgan.

Bu fanlar o‘z negizida qamrab olingan ma’lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

TUPROQ BONITIROVKASI VA XARITALASH

fani bo‘yicha:

Tuproq bonitirovkasi va xaritalash fanining rivojlanish tarixi. Tuproqning muhim agronomik xususiyatlari asosida qiyosiy baholash. Tuproqlarni unumdorlik sifatini qiyosiy baholashda bir hudud xo‘jaligining tuproqlari ikkinchi hudud xo‘jalik tuproqlaridan sifati bo‘yicha yaxshi yoki yomonligini aniqlashda, ularni genetikaviy ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga asoslanishi. Tuproqning bonitet bali. Tuproqni bonitirovkalash va tuproqning xossalari va qishloq xo‘jalik ekinlarining xosili. Yerni iqtisodiy baholash tushunchasi. Tuproq bonitirovkasi va xaritalash ishlarining tarixi o‘rganiladi.

Tuproqni xaritalash fanining o'rganilishi, tuproqni xaritalash fanining tarixi va bosqichlari. Tuproq qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy vositasi hisoblanadi. Ekin maydonlarining o'ziga xos xususiyatlarining va tuproq unumdorligini yaxshi bilish har bir xo'jalik yerlaridan unumli va samarali foydalanish xamda hosildorligini oshirishga qaratilgan agrotexnik tadbirlarni puxta amalga oshirish imkonini beradi. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan tuproq sharoitini o'rganishda, qishloq xo'jalik mutaxassislariga tuproq xaritalari va kartogrammalarining yordami.

Tuproq xossalariga ko'ra zarur agrotexnik meliorativ tadbirlarning yoritilishi va ishlab chiqarishda joriy etilishi. Tuproq tekshirishlarning masshtabiga ko'ra maqsadi va vazifasi. Tuproq paydo qiluvchi omillarning bir -biriga bog'liqligini va yer yuzida tuproqlarning tarqalish qonuniyatlarini, tuproqni xaritalashning ilmiy asoslarini bilish. Fanning yuzaga kelishida V.V.Dokuchayev va uning shogirdlarini qo'shgan hissalar. Respublikamizda tuproqni tekshirish va xaritaga tushirish bo'yicha shug'ullanadigan tashkilotlar, ilmiy tekshirish muassasalari va yetuk olimlarning faoliyati haqida ma'lumotlar.

AGROKIMYOVIY TEKSHIRISH USULLARI

fani bo'yicha:

Agrokimyoviy tekshirish usullarining rivojlanish tarixi. Respublikamizda o'g'itlar bilan agrokimyoviy tadqiqotlarning yo'lga qo'yilishi, rivojlanish tarixi, hozirgi holati va istiqboli. Agrokimyoviy tadqiqotlar va ularning turlari: tajriba va kuzatishlar. Agrokimyoviy tadqiqotlardagi laboratoriya va biologik usullar. Tadqiqotlarni rejalashtirish va tashkil qilish. Vegetatsion tadqiqotlar usuli, ular oldiga qo'yilgan talablar va o'tkazish usullari. Vegetatsiya tajribasi - tadqiqotlarning biologik usuli. Uning mohiyati, qo'llanish sohalari. Vegetatsiya tajribalarining rivojlantirishda J.B.Bussengo, K.A. Timiryazev, D.N.Pryanishnikov kabi olimlarning roli. Suvli, qumli va tuproqli muhitda amalga oshiriladigan vegetatsiya tajribalari. Oziq aralashmalari va ularning oldiga qo'yiladigan talablar. Ionlar antagonizmi va sinergizmi. O'simliklarni suvli va qumli muhitda yetishtirish texnologiyasi. Lizimetrik tajribalar; mohiyati, qo'llanish sohalari. Lizimetrik tajribalarga qo'yiladigan talablar va ularni o'tkazish usullari. Lizimetrlar va lizimetrik qurilmalarning turlari. Dala tajribasi oldiga qo'yiladigan talablar: tipiklik, bitta belgi bilan farqlanish, maxsus maydonchalarda o'tkazish, aniqlik va hosilni hisobga olish. Dala tajribalarida uchraydigan xatolar. Dala tajribalarining turlari: bir va ko'p omilli; yakka tartibli va geografiyaviy tarmoq; qisqa muddatli, ko'p yillik va statsionar; agrotexnikaviy va nav sinash; maxsus maydonchalarda yoki ishlab chiqarish sharoitlarida o'tkaziladigan tajribalar. Tajriba maydonchasi oldiga qo'yiladigan talablar. Dala tajribasining tarkibiy qismlari: variantlar, takrorlik (qaytariq)lar, bo'lakchalar, himoya yo'laklari, hisobga olinadigan va

olinmaydigan qatorlar, hisobga olinadigan va olinmaydigan o'simliklar. Tajriba paykalini tarkibiy qismlarga taqsimlash. Dala tajribalarida amalga oshiriladigan agrotexnik ishlar, fenologik kuzatishlar, hosilni yig'ishtirish va hisobga olish. O'g'itlar ustida amalga oshiriladigan dala tajribalari, ularni yo'lga qo'yish va amalga oshirishning o'ziga xos tomonlari. Tajribaning aniqligi va uning mezonlarini bilish.

O'SIMLIKLARNI OZIQLANISHI VA O'G'ITLASH

fani bo'yicha:

O'simliklarning kimyoviy tarkibi. O'simliklar tarkibidagi suv va quruq moddaning miqdori. O'simliklar oziqlanishining avtotrof, mikotrof va bakteriotrof tiplari. O'simliklarning ildiz va havo orqali oziqlanishi. O'simliklarning ildiz tizimi, tiplari, tuzilishi va funksiyalari. Oziq eritmalari. Ionlar antogonizmi. Fiziologik muvozanatlashgan eritma. O'simliklar oziqlanishiga tashqi muhit omillarining ta'siri. O'simliklar oziqlanishida mikroorganizmlarning roli.

Tuproqning mineral va suyuq qismlari oziq elementlari manbai sifatida. Tuproq organik moddalari va tarkibi tuproq unumdorligining asosiy ko'rsatkichlaridir. Tuproqning singdirish qobiliyati, buferligi va tuproq muhitining reaksiyasi o'simliklar oziqlanishining muhim omillari. O'g'itlarni sistematik ravishda qo'llashning tuproq xossalari va unumdorligiga ta'siri. Intensiv dehqonchilikda oziq elementlar aylanishi va balansi.

Azotning o'simliklar hayotidagi roli. O'simliklarning ammiak va nitrat shaklidagi azot bilan oziqlanishining o'ziga xosligi. Azot bilan oziqlanishning hosil va uning sifatiga ta'siri. Dexqonchilikda azotning aylanishi.

O'simliklarning fosfor bilan oziqlanishi. Fosforning o'simlik modda almashinuvidagi ahamiyati. Qishloq xo'jalik ekinlari ayrim guruhlarining qiyin eriydigan fosfat shakllarini o'zlashtirishdagi o'ziga xos xususiyatlari. O'simliklarning kaliy bilan oziqlanishi. Kaliyning o'simliklardagi uglevod va azot almashinuviga ta'siri. Kaliyning fotosintez jarayonidagi roli. O'simliklar oziqlanishida oltingugurt, magniy, kalsiy, bor, manganets, mis, kobalt, molibden va boshqa elementlarning roli va ularning hosildorlikka ta'siri. O'simliklarning tashqi belgilari va kimyoviy tarkibiga qarab oziq elementlarining yetishmasligini diagnoz qilish. Oziqlanish sharoitining o'simliklarning hosili va uning sifatiga ta'siri.

O'g'it qo'llash tizimining rivojlanish tarixi. Qishloq xo'jaligini kompleks rivojlantirishda o'g'it qo'llash tizimining o'rni. Ekinlar hosildorligi va ularni o'g'it bilan ta'minlanishi o'rtasidagi bog'liqlik. O'g'itlash tizimini ishlab chiqish bosqichlari. O'g'it qo'llash bo'yicha tavsiya-hujjatlarini tayyorlash va uni amaliyotga tadbiiq etish. O'g'it qo'llash tizimining asosiy vazifalari va tiplari. O'simliklarga oziq moddalari yutilishining rivojlanish davrlariga bog'liqligi. O'simliklar tomonidan tuproqdan oziq elementlarini olib chiqib ketilishi. Oziq

moddalari olib chiqib ketilishining turlari. Tuproqdan olib chiqib ketiladigan oziq elementlari miqdoriga ta'sir etuvchi omillar (iqlim sharoitlari, ekinning navi, hosil miqdori, o'g'it me'yori va sug'orish). O'simliklar tomonidan tuproqdagi oziq moddalarini o'zlashtirilishi. Oziq moddalarining o'zlashtirilish koeffitsenti va unga tuproq unumdorligi, muhiti (r.n), iqlim agrotexnikaviy tadbirlarining ta'siri. O'zbekiston iqlimining o'ziga xos tomonlari. Iqlim ko'rsatgichlarining oziqlanishiga ta'siri. Respublika tuproqlarining agrokimyoviy xossalari. Tuproq tiplari, xossalari va o'g'itlar o'rtasidagi munosabat. Agrotexnika sharoitlarining o'g'itlar samaradorligiga ta'siri. Mahalliy va mineral o'g'itlarni birgalikda qo'llashning ahamiyati. O'g'it qo'llashning usullari. Asosiy (ekishgacha, ekish oldidan), qatorlab (ekish bilan birga) va qo'shimcha oziqlantirish. Asosiy o'g'itlashning o'simliklar oziqlanishidagi ahamiyati. O'g'it qo'llashning muddatlari (kuzda, baxorda, yozda x.k.). O'g'it qo'llashning tiplari. O'g'itlarni tuproq bilan aralashtirish yo'llari: plug yordamida, oziqlantirgich yordamida, tirmalar yordamida. O'g'it me'yori va dozasi haqida tushuncha. Mineral o'g'itlarning maqbul, oqilona eng yuqori me'yorlari. Qo'llaniladigan mineral o'g'it me'yorlarini aniqlash yo'llari. O'g'it me'yorlarini belgilashda dala tajribalari va agrokimyoviy tekshirishlarning natijalaridan foydalanish. Mineral o'g'it me'yorlarini hisoblash yo'li bilan aniqlash. Hisoblash yo'li bilan aniqlashning elementlar, balans, normativ balans va qo'shimcha hosilni hisobga olish usullari. Mineral o'g'it me'yorlarini aniqlashning kompleks usuli.

Atrof muhitni saqlash va uni muhofaza qilish masalalari haqida umumiy tushuncha. Atrof muxitni yaxshilashning agrokimyoviy xossalari. Atrof muhitning agrokimyo bilan bog'liq ifloslanishi va undan xalos bo'lish yo'llari. Ekologik muammolarni xal qilishning agrokimyoviy yo'llari.

Mahalliy o'g'itlarning turlari: go'ng, kompostlar, parranda axlati, chuchuk suv xavzalarining cho'kindilari va boshqalar. Go'ngning kimyoviy tarkibi. Go'ngning tuproq unumdorligi va xossalariga ta'siri. Go'ngdan ajraladigan SO₂ - tuproq unumdorligi va uning xossalarini yaxshilovchi vositadir. To'shamali va to'shamasiz go'ng. To'shamaning turlari. Go'ng saqlashning o'ziga xos tomonlari. Go'ngni samaradorligini fosforit tolqoni bilan kompostlash yo'li bilan oshirish. Ekinlarga qo'llaniladigan go'ng normalari. Go'ngning qo'llanilgandan keyingi ta'siri. Mahalliy va mineral o'g'itlarni birgalikda qo'llash. Go'ng suyuqligi va undan samarali foydalanish yo'llari. Kompostlar. Parranda axlati.

Torf o'g'it sifatida. Torfning kimyoviy tarkibi. Torfli-go'ngli, torfli go'ng suyuqligi va torfli najasli va boshqa turdagi kompostlarni tayyorlash usullari va texnikasi. Torfli o'g'itlarni qo'llash normalari va usullari. Torfli kompostlarning tuproq unumdorligi va ekinlar Hosildorligiga ta'siri.

Ko'kat (yashil) o'g'itlar. Ko'kat o'g'itlarning ahamiyati. Ko'kat o'g'itlarni qo'llash - muhim agrotexnikaviy tadbir. Ko'kat o'g'itlarni qo'llash texnikasi.

Bakterial preparatlar. Biologik azotning ahamiyati. Dukkakli ekinlar tomonidan atmosfera azotining fiksatsiyalanishi va bunda bakteriyalar bilan dukkakli ekinlar o'rtasidagi o'zaro aloqa.

O'g'itlarni tuproq xossalari va agrotexnikaviy tadbirlarga bog'liq xolda qo'llash. O'g'itlarni tuproq - iqlim sharoitiga bog'liq holda qo'llash. Olinadigan iqtisodiy samaradorlikning o'g'itlarni qo'llash texnikasi, namlik, tuproqning madaniylashganligi va boshqa tadbirlarga bog'liqligi. Sug'oriladigan va lalmikor dexqonchilik sharoitida o'g'it qo'llashning o'ziga xos tomonlari. Turli tuproqlarda mineral o'g'itlarning transformatsiyasi.

O'g'it normalari, qo'llash muddatlari va usullari. Vegetatsiya davrida o'simliklarning oziq elementlariga bo'lgan extiyojini me'yorida ta'minlash yo'llari. Asosiy o'g'itlash - o'simliklarni vegetatsiya davrida oziq moddalari bilan ta'minlash tadbiridir. Asosiy o'g'itlashda oziq elementlarining me'yor va nisbatlari.

MELIORATIV TUPROQSHUNOSLIK VA TUPROQ MUHOFAZASI

fani bo'yicha:

Meliorativ tuproqshunoslik va tuproq muhofazasining rivojlanish tarixi. Tuproqlarning kimyoviy asoslari va tuproq unumdorligini muxofaza qilish haqidagi bo'limi ekanligi. Tuproq melioratsiyasining tuproqlar klassifikatsiyasi, diagnostikasi, genezisi, bonitirovkasi va melioratsiyasi masalalarini yechishdagi roli. Tuproq kimyosining nazariy, eksperimental va dalada tekshirish usullari. Meliorativ tuproqshunoslikning mazmuni. Tabiatning qayta yaralishida melioratsiya roli va ahamiyati. Tuproq melioratsiyasining turlari: himoyalovchi melioratsiyalar yuqoi mahsuldor tuproqlarni saqlash, unumsiz va kam mahsuldor tuproqlarni tub melioratsiyalari, buzilgan va yangidan paydo bo'lgan sun'iy tuproqlarni tiklovchi melioratsiya. Sho'rlangan tuproqlarning umumiy tavsifi. Sho'rlangan tuproqlarni o'rganish tarixi. Sho'rlangan tuproqlarni kelib chiqishi, sabablari va tarqalishi. Tuproq shurlanishini keltirib chiqaruvchi asosiy omillar. Tuproqdagi tuz manbalari, tuzlarning xarakati, qayta taqsimlanishi va to'planishi. Sho'rlangan tuproqlar tavsifi. Tubdan melioratsiyalash. Turli maqsadlar uchun tuproq-meliorativ rayonlashtirish haqida tushuncha. Tuproq muhofazasining ilmiy yo'nalishlari, muammolari, muhofazalash masalalari. Geografik axborot tizimi, zamonaviy geografik tizimlardan foydalanish, ularni o'qish, bilish va foydalana olish, yangi usullarni qo'llash. "Ponarama" va "ArcGIS" dasturlarni o'qish va foydalanish. Tuproq degradatsiyasi turlari va omillari, tuproqlarni mexanik buzilishi, tuproqlarni fizik degradatsiyasi, tuproqning kimyoviy degradatsiyasi, degradatsiyaga uchragan tuproqlarning biologik faolligi, iqlim o'zgarishi va tuproq degradatsiyasi. Cho'llanish jarayonining asosiy tiplari va uni belgilovchi indikatorlar. Cho'llanish jarayonini yuzaga keltiruvchi omillar. Yerlardan

nooqilona foydalanish oqibatida yuzaga kelayotgan cho'llanish jarayonining turli tiplari. Cho'llanishning antropogen omillari. Orol dengizi qurishi bilan bog'liq cho'llanish. Yerlar cho'llanishining tuproq xossalariga ta'siri va uni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar. Iqlim o'zgarishi haqida umumiy ma'lumotlar. Iqlim o'zgarishini belgilovchi omillar. Global miqyosda iqlim o'zgarishining oqibatlari. O'zbekistonda iqlimning mintaqaviy o'zgarishi va uning oqibatlari. Iqlim o'zgarishiga agrosferaning moslashuvi sharoitlarida tuproqshunoslik sohasini rivojlantirishda asosiy ustuvor masalalar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16- yanvar №11.

3. Mirziyoyev Sh.M. 2018 yil 16 yanvardagi PF-5303-son "Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

7. Abdullayev S., Namozov X. "Tuproq melioratsiyasi" «O'zbekiston Davlat Milliy ensiklopediyasi». Toshkent-2011 y. 8-76 bet. Darslik

8. Gafurova L.A., Abdullayev S.A., Namozov X.Q.– «Meliorativ tuproqshunoslik» «O'zbekiston Davlat Milliy ensiklopediyasi». Toshkent-2003 y. 54-68 bet. Darslik

9. Karimov M.U. "O'g'it qo'llash tizimi". T. Navro'z nashriyoti. 2017 y. darslik

10. Musayev B.S. «Agrokimyoy» T. Sharq. 2001.297-313 b. darslik

11. Musayev B.S., Xojiyev B.T. Agrokimyoviy tekshirish usullari. Toshkent, ToshDAU nashr-tahririyat bo'limi, 2004. 5-250 bet darslik

12. Maxsudov X.M, Gafurova L.A. «Eroziyashunoslik» darslik, T 2013 y

13. Mirzajonov Q., Nazarov M., Zokirova S., Yo'ldoshev G'. Tuproq muhofazasi. Toshkent 2004. 18-128 betlar. O'quv qo'llanma

14. Namozov X.Q., Ro'zmetov M.I.«Meliorativ tuproqshunoslikdan amaliy mashg'ulotlar», «O'zbekiston Davlat Milliy ensiklopediyasi». Toshkent-2004y. 3-75 bet. O'quv qo'llanma

15. Namozov X., Turdimetov Sh., Toshpo‘latov S. “Tuproq bonitirovkasi va xaritalash”. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2016 y. 3-266 bet Darslik

16. Turapov I., Namozov X.Q. “Tuproq bonitirovkasi”. “Fan va texnologiya nashriyoti. Toshkent 2010 y. 24-76 bet. O‘quv qo‘llanma

17. Beknazarov B. O‘simliklar fiziologiyasi. Darslik. Toshkent, Aloqachi, 2009.

18. Sattorov D.S. tahriri ostida Agrokimyo darsligi. Toshkent, Cho‘lpon nashriyoti, 2011 y.

19. MetodI agroximicheskix i agrofizicheskix analizov pochv i rasteniy. Tashkent, 1977.

20. Mineyev V.G. Praktikum po agroximii. Moskva, 1990.

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING
MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI
UCHUN MAXSUS FANLARDAN ABITURIYENTLARNING
BILIMLARINI BAHOLASH MEZONI**

Sinov topshirish shakli	TEST - kompyuterda
Test yechish uchun ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Test savollari soni	50
Har bir to`g`ri javob uchun ball	2
Maksimal ball	100
O`tish bali	55